

EKOLOGIYA – KELAJAK AVLOD UCHUN MAS’ULIYAT

Nishonboyev Sardorbek Utkir o‘g‘li

O‘qish joyi: 11-“A” sinfo ‘quvchisi, Farg‘ona viloyati, So‘x tumani, 10-maktab

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologiya fanining mohiyati, atrof-muhitni asrash zaruriyati hamda inson faoliyatining tabiatga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Hozirgi kunda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va yoshlarning bu boradagi mas’uliyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, tabiat, atrof-muhit, chiqindi, suv, daraxt, havo, yashil makon, tozalik, ekologik madaniyat, kelajak.

Kirish:

Bugungi kunda ekologiya masalasi butun dunyoda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Tabiat – bu inson hayotining asosi, bizning yashash manbaimizdir. Inson tabiatdan oziq, suv, havo va tinchlik oladi. Ammo agar inson tabiatni asramasa, bu ne‘matlar ham asta-sekin yo‘qolib boradi.

So‘nggi yillarda havo ifloslanishi, chiqindilar ko‘payishi, suvning tanqisligi va global isish kabi muammolar ko‘paymoqda. Bularning barchasi inson faoliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash har birimizning kundalik burchimiz bo‘lishi kerak.

Asosiy qism:

Ekologiya – bu inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganadigan fan. U bizni atrof-muhitni toza saqlashga, resurslardan oqilona foydalanishga va kelajak avlod uchun tabiiy boyliklarni asrashga o‘rgatadi.

Bugungi kunda eng katta muammolardan biri – chiqindilar masalasi. Ko‘pchilik plastik idishlar va paketlarni tabiatga tashlab ketadi. Ular yillar davomida parchalanmaydi, tuproqni va suvni zaharlaydi. Jahon miqyosida har yili taxminan 350–400 million tonna plastik chiqindi hosil bo‘ladi. Shu sababli chiqindilarni joyiga tashlash, qayta ishlash madaniyatini o‘rganish zarur. Har bir inson chiqindini ajratib tashlashni o‘z odatiga aylantirsa, atrof-muhit ancha toza bo‘ladi.

Suv resurslarini tejash ham juda muhim. Ba‘zan biz suvni behuda sarflaymiz: tish yuvayotganda yoki idish yuvayotganda suvni ochiq qoldiramiz. Ammo suv har bir tomchisi qimmatli. Kelajakda suv tanqisligi insoniyat uchun katta muammo bo‘lishi mumkin. Shu bois suvni tejashni har birimiz o‘zimizdan boshlashimiz kerak.

Havoni toza saqlash uchun esa ko‘proq daraxt ekish zarur. Daraxtlar nafaqat go‘zallik beradi, balki havoni tozalaydi, issiqni kamaytiradi va kislorod manbai bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekistonda ‘Yashil Makon’ loyihasi doirasida 2025-yilda 200 milliondan ortiq daraxt va butalar ekilishi rejalashtirilgan. Bu nafaqat atrof-muhitni tozalash, balki mamlakat iqlimini sog‘lomlashtirish yo‘lida katta qadamdir.

Maktab, mahalla va hovlilarda daraxt ekish tadbirlarini ko‘paytirish foydali bo‘ladi. Har bir ekilgan daraxt – bu kelajak hayotga qo‘shilgan hissa demakdir.

Yoshlar o‘rtasida ekologik tarbiyani kuchaytirish bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki biz – kelajak egalarimiz. Agar bugun tabiatni asramasak, ertaga yashash uchun toza joy qolmasligi mumkin. Shuning uchun har bir o‘quvchi va har bir fuqaro o‘zini tabiatning do‘sti deb bilishi kerak.

Ekologik madaniyat bu – tozalikka, tartibga va hayotga bo‘lgan hurmatdir. Toza ko‘cha, toza suv, toza havo – bu sog‘lom jamiyat belgisi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ekologiya bu – faqat fan emas, balki hayot tarzidir. Har bir inson tabiatni asrashni o‘zining kundalik odatiga aylantirsa, yer yuzida ko‘plab muammolar yo‘qoladi.

Har bir daraxt ekilgan joyda hayot paydo bo‘ladi, har bir toza ko‘cha sog‘lom jamiyatni bildiradi. Shuning uchun bugundan boshlab tabiatni asrashni o‘zimizdan boshlaylik: suvni tejaylik, chiqindilarni joyiga tashlaylik, daraxt ekaylik va tozalikni qadrlaylik. Chunki tabiat – bu bizning kelajagimizdir.